The study analyzed CBCT and IOS datasets from 23 patients. Registration was performed using three different approaches: manual registration (MR), semi-automatic registration (SR), and AI-based automatic registration (AR). Evaluation metrics included registration time, median surface deviation (MSD), and root mean square error (RMS).

The results demonstrated a significant advantage of the AI-based method. The AR approach reduced registration time by more than tenfold and improved accuracy metrics ($MSD \approx 0.04$ mm). This approach minimizes human-related errors and enhances the reproducibility of results.

In conclusion, AI-based multimodal registration systems exhibit high efficiency in dentistry and play a crucial role in optimizing implantological planning.

Keywords: artificial intelligence, CBCT, intraoral scanning, multimodal registration, 3D modeling, implantology, digital dentistry

ИСМОИЛОВ Ахроржон Анваржон оглы
САНАКУЛОВ Джамшед Облобердиевич

Самаркандский государственный медицинский университет

ПОВЫШЕНИЕ ЭФФЕКТИВНОСТИ МУЛЬТИМОДАЛЬНОЙ РЕГИСТРАЦИИ ДАННЫХ СВСТ И ИНТРАОРАЛЬНОГО СКАНИРОВАНИЯ НА ОСНОВЕ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА

АННОТАЦИЯ

Данное исследование направлено на оценку эффективности мультимодальной регистрации данных конусно-лучевой компьютерной томографии (СВСТ) и интраорального сканирования

(IOS) на основе искусственного интеллекта (ИИ) в рамках совершенствования цифровых технологий в стоматологии. В современной имплантологической практике высокоточная диагностика и разработка индивидуального плана лечения требуют использования трёхмерных (3D) моделей. CBCT предоставляет детализированную информацию о костных структурах, тогда как IOS обеспечивает высокоточную визуализацию поверхностей зубов и мягких тканей. Интеграция этих двух типов изображений повышает качество принятия клинических решений.

В исследовании были проанализированы данные CBCT и IOS 23 пациента. Регистрация выполнялась тремя методами: вручную (MR), полуавтоматически (SR) и автоматически на основе искусственного интеллекта (AR). В качестве критериев оценки использовались время регистрации, медианное поверхностное отклонение (MSD) и среднеквадратическое отклонение (RMS).

Результаты показали значительное преимущество метода, основанного на искусственном интеллекте. При использовании AR время регистрации сократилось более чем в 10 раз, а показатели точности улучшились ($MSD \approx 0,04$ мм). Данный подход снижает ошибки, связанные с человеческим фактором, и повышает воспроизводимость результатов.

В заключение следует отметить, что системы мультимодальной регистрации на основе искусственного интеллекта обладают высокой эффективностью в стоматологии и играют важную роль в оптимизации имплантологического планирования.

Ключевые слова: искусственный интеллект, CBCT, интраоральное сканирование, мультимодальная регистрация, 3D-моделирование, имплантология, цифровая стоматология

ISMOILOV Axrorjon Anvarjon o'g'li
SANAQULOV Jamshed Obloberdi o'gli
Samarqand davlat tibbiyot universiteti

SUN'IY INTELLEKT ASOSIDA CBCT VA INTRAORAL SKANLARNI MULTIMODAL REGISTRATSIYA QILISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH

ANNOTATSIYA

Ushbu tadqiqot stomatologiyada raqamli texnologiyalarni takomillashtirish doirasida konus-nurli kompyuter tomografiyasi (CBCT) va intraoral skan (IOS) ma'lumotlarini sun'iy intellekt (SI) asosida multimodal registratsiya qilish samaradorligini baholashga qaratilgan. Zamonaviy implantologik amaliyotda yuqori aniqlikdagi diagnostika va individual davolash rejasini tuzish uchun uch o'lchamli (3D) modellar muhim ahamiyatga ega. CBCT suyak strukturalari haqida batafsil ma'lumot beradi, IOS esa tish yuzalari va yumshoq to'qimalarni yuqori aniqlikda aks ettiradi. Ushbu ikki turdagi tasvirlarni integratsiya qilish klinik qaror qabul qilish sifatini oshiradi.

Tadqiqotda 23 nafar bemorning CBCT va IOS ma'lumotlari tahlil qilindi. Registratsiya uch xil usulda amalga oshirildi: qo'lda (MR), yarim avtomatik (SR) va sun'iy intellekt asosidagi avtomatik (AR) usullar. Baholash mezonlari sifatida registratsiya vaqti, median yuzaviy og'ish (MSD) va o'rtacha kvadratik og'ish (RMS) qo'llanildi.

Natijalar sun'iy intellekt asosidagi usulning sezilarli ustunligini ko'rsatdi. AR usulida registratsiya vaqti 10 martadan ortiq qisqardi va aniqlik ko'rsatkichlari yaxshilandi ($MSD \approx 0,04$ мм). Ushbu yondashuv inson omiliga bog'liq xatolarni kamaytiradi va natijalarning takrorlanuvchanligini oshiradi.

Xulosa qilib aytganda, sun'iy intellekt asosidagi multimodal registratsiya tizimlari stomatologiyada yuqori samaradorlikka ega bo'lib, implantologik rejalashtirishni optimallashtirishda muhim rol o'ynaydi.

Kalit so'zlar: Sun'iy intellekt, CBCT, intraoral skan, multimodal registratsiya, 3D modellashtirish, implantologiya, raqamli stomatologiya

Kirish

So‘nggi yillarda stomatologiya sohasida raqamli transformatsiya jarayoni jadal sur‘atlarda rivojlanmoqda. An‘anaviy diagnostika usullaridan raqamli texnologiyalarga o‘tish klinik natijalarni sezilarli darajada yaxshilashga xizmat qilmoqda. Ayniqsa, uch o‘lchamli vizualizatsiya va modellashtirish texnologiyalari implantologiya, ortodontiya va ortopedik stomatologiyada yangi imkoniyatlar yaratdi. Konus-nurli kompyuter tomografiyasi (CBCT) suyak strukturalarini aniqlashda “oltin standart” hisoblanadi. U nerv kanallari, sinuslar va alveolyar suyak hajmini aniq baholash imkonini beradi. Shu bilan birga, intraoral skan texnologiyasi tish yuzalarining yuqori aniqlikdagi raqamli modelini yaratadi. IOS yordamida olingan ma‘lumotlar an‘anaviy gips modellarga nisbatan tezroq va aniqlik jihatidan ustundir. Biroq CBCT va IOS ma‘lumotlarini birlashtirish — ya‘ni multimodal registratsiya — murakkab jarayon hisoblanadi. An‘anaviy qo‘lda registratsiya operator tajribasiga bog‘liq bo‘lib, ko‘p vaqt talab qiladi. Yarim avtomatik usullar esa ma‘lum darajada yordam bersa-da, to‘liq avtomatlashtirilmagan.

Sun‘iy intellekt texnologiyalarining rivojlanishi ushbu muammoni hal qilishda yangi bosqichni boshlab berdi. Mashinaviy o‘rganish algoritmlari tasvirlarni avtomatik ravishda moslashtirish, xatolarni minimallashtirish va natijalarni optimallashtirish imkonini beradi. Shu sababli, ushbu tadqiqotning asosiy maqsadi — sun‘iy intellekt asosidagi multimodal registratsiya tizimining samaradorligini baholash va uni an‘anaviy usullar bilan solishtirishdir.

Materiallar va metodlar

Ushbu tadqiqot retrospektiv va eksperimental dizaynda tashkil etildi hamda stomatologik amaliyotda qo‘llaniladigan raqamli tasvirlash texnologiyalarining o‘zaro integratsiyasini baholashga qaratildi. Tadqiqot doirasida jami 23 nafar bemorning konus-nurli kompyuter tomografiyasi (CBCT) va intraoral skan (IOS) ma‘lumotlari tahlil qilindi. Barcha ma‘lumotlar anonimlashtirilgan holda qayta ishlanib, bemorlarning shaxsiy ma‘lumotlari maxfiyligi ta‘minlandi. Tadqiqotga kiritish uchun qat‘iy inkluzion mezonlar belgilandi. Tadqiqotga faqat to‘liq dentitsiyaga ega, ya‘ni tish qatorida sezilarli defektlar bo‘lmagan bemorlar kiritildi. Bu esa registratsiya jarayonida mos keluvchi anatomik nuqtalarni aniqlashni osonlashtirdi. Shuningdek, intraoral skan sifatining yuqori darajada bo‘lishi muhim omil sifatida qaraldi. Past sifatli yoki noaniq skanlar tahlildan chiqarib tashlandi. CBCT tasvirlarida artefaktlar mavjud bo‘lmasligi ham asosiy talab sifatida belgilandi. Metal artefaktlar yoki harakat artefaktlari mavjud bo‘lgan tasvirlar tadqiqotdan chiqarildi, chunki ular registratsiya aniqligiga salbiy ta‘sir ko‘rsatishi mumkin. Shu tarzda tanlangan namunalar to‘plami tadqiqot natijalarining ishonchliligini ta‘minlashga xizmat qildi.

CBCT tasvirlari standart klinik protokollar asosida olingan bo‘lib, har bir bemor uchun optimal ekspozitsiya parametrlari tanlandi. Tasvirlash jarayonida kuchlanish (kV), tok kuchi (mA) va voxel o‘lchami individual ravishda sozlandi. Bu esa suyak strukturalarining yuqori aniqlikda aks ettirilishini ta‘minladi. Olingan CBCT ma‘lumotlari DICOM formatida saqlandi va keyinchalik maxsus dasturiy ta‘minot yordamida qayta ishlash uchun eksport qilindi. Intraoral skan ma‘lumotlari zamonaviy optik skanerlar yordamida olingan bo‘lib, ular yuqori aniqlikdagi uch o‘lchamli model yaratish imkonini beradi. Skanlash jarayonida bemor og‘iz bo‘shlig‘ining barcha segmentlari qamrab olindi va olingan ma‘lumotlar STL (stereolithography) formatida saqlandi. Ushbu format 3D modellashtirish va registratsiya jarayonlarida keng qo‘llaniladi.

Tadqiqotda uch xil registratsiya usuli qo‘llanildi va ular o‘zaro solishtirildi:

1. Qo‘lda registratsiya (Manual Registration – MR).

Ushbu usulda operator tomonidan CBCT va IOS ma‘lumotlari o‘rtasida mos keluvchi anatomik nuqtalar qo‘lda tanlandi. Ushbu jarayon katta tajriba talab qiladi va operatorning subyektiv qarorlariga bog‘liq. Qo‘lda registratsiya yuqori aniqlik berishi mumkin, ammo u ko‘p vaqt talab qiladi va takrorlanuvchanligi past.

2. Yarim avtomatik registratsiya (Semi-automatic Registration – SR).

Mazkur usulda dasturiy ta‘minot yordamida boshlang‘ich moslashtirish amalga oshiriladi, so‘ngra operator tomonidan qo‘shimcha tuzatishlar kiritiladi. Bu usul qo‘lda registratsiyaga nisbatan tezroq bo‘lsa-da, baribir inson aralashuvini talab qiladi.

3. Sun'iy intellekt asosidagi registratsiya (Automatic Registration – AR).

Ushbu usul zamonaviy mashinaviy o'rganish algoritmlariga asoslangan bo'lib, tasvirlarni avtomatik ravishda moslashtiradi. Algoritm yuzaviy xususiyatlar, geometriya va tekstura ma'lumotlarini tahlil qilib, optimal moslikni aniqlaydi. Bu usul inson omilini deyarli butunlay bartaraf etadi va yuqori tezlik hamda aniqlikni ta'minlaydi.

Registratsiya natijalari bir nechta kvantitativ ko'rsatkichlar asosida baholandi:

- **Vaqt (sekundlarda):** har bir registratsiya usuli uchun sarflangan umumiy vaqt o'lchandi.

- **Median Surface Distance (MSD):** ikki model yuzalari orasidagi median masofa hisoblandi. Ushbu ko'rsatkich registratsiya aniqligini baholashda muhim ahamiyatga ega.


- **Root Mean Square Error (RMS):** yuzaviy og'ishlarning kvadratik o'rtacha qiymati hisoblandi. Bu ko'rsatkich umumiy xatolik darajasini aks ettiradi.

Mazkur parametrlar yordamida har bir usulning aniqligi va samaradorligi obyektiv tarzda baholandi. Olingan natijalar statistik jihatdan tahlil qilindi. Turli registratsiya usullari o'rtasidagi farqlarni aniqlash uchun dispersiya tahlili (ANOVA) qo'llanildi. Statistik ishonchlik darajasi $p < 0,05$ sifatida qabul qilindi. Qo'shimcha ravishda, natijalarning barqarorligini baholash uchun tavsifiy statistik ko'rsatkichlar (o'rtacha qiymat, standart og'ish) hisoblab chiqildi.

Natijalar

Ushbu tadqiqotda CBCT va intraoral skan ma'lumotlarini uch xil registratsiya usuli — qo'lda (MR), yarim avtomatik (SR) va sun'iy intellekt asosidagi avtomatik (AR) usullar yordamida moslashtirish samaradorligi kompleks tarzda baholandi. Natijalar vaqt samaradorligi, aniqlik ko'rsatkichlari (MSD va RMS), shuningdek, natijalarning takrorlanuvchanligi asosida tahlil qilindi.

Har bir registratsiya usuli uchun sarflangan vaqt alohida o'lchandi va o'rtacha qiymatlar hisoblab chiqildi. Natijalar shuni ko'rsatdiki, registratsiya vaqti usullar orasida sezilarli darajada farq qiladi.




Grafik 1. Registratsiya vaqti (sekundlarda)

Qo'lda registratsiya (MR) eng ko'p vaqt talab qiluvchi usul bo'lib, o'rtacha 820 ± 156 soniyani tashkil etdi. Ushbu usulda operator tomonidan anatomik nuqtalarni qo'lda aniqlash va moslashtirish zarur bo'lganligi sababli vaqt sarfi yuqori bo'ldi. Bundan tashqari, operator tajribasiga bog'liqlik ham vaqt o'zgaruvchanligini oshirdi. Yarim avtomatik registratsiya (SR) usulida vaqt sarfi


sezilarli darajada kamaydi va oʻrtacha 264 ± 98 soniyani tashkil etdi. Dasturiy yordam boshlangʻich moslashtirishni tezlashtirgan boʻlsa-da, yakuniy natijaga erishish uchun operator tomonidan qoʻshimcha tuzatishlar kiritilishi talab qilindi.

Sunʻiy intellekt asosidagi avtomatik registratsiya (AR) eng yuqori tezlikni namoyon etdi. Ushbu usulda registratsiya vaqti atigi 48 ± 16 soniyani tashkil etdi. Bu natija MR usuliga nisbatan taxminan 16 barobar, SR usuliga nisbatan esa 5 barobar tezroq ekanligini koʻrsatdi. AR usulida inson aralashuvi talab qilinmagani sababli vaqt sarfi minimal darajada boʻldi.



Grafik 2. MSD boʻyicha aniqlik (mm)

Registratsiya aniqligi ikki asosiy koʻrsatkich — Median Surface Distance (MSD) va Root Mean Square Error (RMS) yordamida baholandi. Sunʻiy intellekt asosidagi AR usulida MSD qiymati oʻrtacha 0,04 mm ni tashkil etdi. Bu juda yuqori aniqlik darajasini koʻrsatadi va klinik amaliyot uchun maqbul hisoblanadi. RMS qiymati esa 0,19 mm atrofida boʻlib, umumiy xatolik darajasi past ekanligini tasdiqladi. Yarim avtomatik SR usulida MSD 0,11 mm ni, RMS esa 0,40 mm ni tashkil etdi. Bu natijalar AR usuliga nisbatan pastroq aniqlikni koʻrsatadi, biroq MR usuliga qaraganda barqarorroq hisoblanadi.



Grafik 3. RMS xatolik koʻrsatkichlari (mm)

Qoʻlda MR usulida MSD 0,13 mm va RMS 0,32 mm ga teng boʻldi. Ushbu usulda aniqlik operator tajribasiga bogʻliq boʻlib, natijalar orasida sezilarli tafovut kuzatildi. Takrorlanuvchanlik (reproducibility) registratsiya usullarining muhim koʻrsatkichlaridan biri hisoblanadi. AR usulida natijalar deyarli bir xil boʻlib, standart ogʻish minimal darajada qayd etildi. Bu sunʻiy intellekt algoritmining barqaror ishlashini koʻrsatadi. SR usulida esa natijalar qisman oʻzgaruvchan boʻlib, operator tomonidan kiritilgan tuzatishlarga bogʻliq ekanligi aniqlandi. MR usulida esa

takrorlanuvchanlik eng past darajada bo'lib, har bir operator turlicha natija berishi mumkinligi kuzatildi.

Registratsiya natijalari nafaqat matematik ko'rsatkichlar, balki vizual tahlil asosida ham baholandi. AR usulida CBCT va IOS modellari o'rtasida mukammal moslik kuzatildi. Tish yuzalari, okklyuzion kontaktlar va anatomik chegaralar yuqori aniqlikda mos tushdi.

SR usulida ayrim joylarda kichik siljishlar kuzatildi, ayniqsa posterior segmentlarda. MR usulida esa ba'zi hollarda sezilarli nomosliklar aniqlandi, bu esa klinik qaror qabul qilishda xatolarga olib kelishi mumkin. ANOVA testi yordamida uchta registratsiya usuli o'rtasidagi farqlar statistik jihatdan tahlil qilindi. Natijalar barcha asosiy ko'rsatkichlar bo'yicha (vaqt, MSD, RMS) statistik jihatdan ahamiyatli farq mavjudligini ko'rsatdi ($p < 0,05$).

1-jadval.

Ko'rsatkich	MR (Qo'lda)	SR (Yarim avtomatik)	AR (Sun'iy intellekt)
Vaqt (sek)	820 ± 156	264 ± 98	48 ± 16
MSD (mm)	0.13	0.11	0.04
RMS (mm)	0.32	0.40	0.19

Post-hoc tahlil natijalari AR usulining MR va SR usullariga nisbatan ustunligini tasdiqladi. Ayniqsa vaqt samaradorligi va aniqlik ko'rsatkichlari bo'yicha farqlar sezilarli darajada yuqori ekanligi aniqlandi.

2-jadval.

Mezoni	MR	SR	AR
Aniqlik	O'rtacha	Yaxshi	Juda yuqori
Tezlik	Past	O'rtacha	Juda yuqori
Takrorlanuvchanlik	Past	O'rtacha	Yuqori
Operatorga bog'liqlik	Yuqori	O'rtacha	Minimal

Olingan natijalarni umumlashtirgan holda quyidagilarni qayd etish mumkin:

- Sun'iy intellekt asosidagi registratsiya eng tezkor usul hisoblanadi
- AR usuli eng yuqori aniqlikni ta'minlaydi
- Natijalarning takrorlanuvchanligi AR usulida maksimal darajada
- MR usuli eng sekin va subyektiv omillarga eng ko'p bog'liq

Shu bilan birga, SR usuli oraliq variant sifatida baholanib, avtomatlashtirish va inson nazorati o'rtasida muvozanatni ta'minlaydi.

Muhokama

Ushbu tadqiqot natijalari sun'iy intellekt asosidagi multimodal registratsiya tizimlarining stomatologik amaliyotda yuqori samaradorlikka ega ekanligini ko'rsatdi. Olingan ma'lumotlar CBCT va intraoral skan ma'lumotlarini birlashtirishda avtomatlashtirilgan algoritmning an'anaviy qo'lda va yarim avtomatik usullarga nisbatan ustunligini aniq tasdiqlaydi.

Tadqiqotda eng muhim natijalardan biri registratsiya vaqtining keskin qisqarishi bo'ldi. Sun'iy intellekt asosidagi AR usulida registratsiya jarayoni o'rtacha 51 soniya davom etgani, MR usulida esa bu ko'rsatkich 800 soniyadan ortiq bo'lgani aniqlandi. Bu farq klinik amaliyot nuqtai nazaridan juda katta ahamiyatga ega. Implantologik rejalashtirish jarayonida vaqt omili muhim rol o'ynaydi, chunki tezkor va aniq diagnostika shifokorga davolashni tezroq boshlash imkonini beradi. Shu sababli, AR usulining yuqori tezligi klinik samaradorlikni oshiradi va ish jarayonini optimallashtiradi. MSD va RMS ko'rsatkichlari asosida olib borilgan tahlil sun'iy intellekt asosidagi registratsiya usulining yuqori aniqligini tasdiqladi. AR usulida MSD qiymatining 0,04 mm darajasida bo'lishi klinik jihatdan juda yuqori aniqlikni bildiradi.

Bu natijalar shuni ko'rsatadiki, sun'iy intellekt algoritmari yuzaviy moslikni optimal darajada aniqlay oladi. Ayniqsa implant joylashuvi rejalashtirilayotgan holatlarda bunday aniqlik darajasi asab kanallari va boshqa muhim anatomik strukturalarni himoya qilishda muhim ahamiyatga ega.

MR usulida aniqlik ko'rsatkichlari operator tajribasiga bog'liq bo'lib, natijalar o'zgaruvchanligi yuqori bo'ldi. SR usuli esa oraliq natijalarni ko'rsatdi, biroq AR darajasiga yetmadi. Sun'iy intellekt asosidagi registratsiya usulining muhim afzalliklaridan biri — natijalarning yuqori takrorlanuvchanligidir. Tadqiqot natijalari AR usulida standart og'ish minimal darajada ekanligini ko'rsatdi, bu esa algoritmnining barqaror ishlashini tasdiqlaydi.

Bunga qarama-qarshi ravishda, MR usulida natijalar operatorga bog'liq ravishda sezilarli darajada farq qilishi mumkin. Bu esa klinik qaror qabul qilishda noaniqlik keltirib chiqaradi. SR usulida esa qisman barqarorlik kuzatilgan bo'lsa-da, inson omili to'liq bartaraf etilmagan.

Ushbu tadqiqot natijalari klinik stomatologiyada muhim amaliy ahamiyatga ega. CBCT va IOS ma'lumotlarini aniq va tezkor integratsiya qilish implantologik davolash rejasini tuzishda yuqori aniqlikni ta'minlaydi. Sun'iy intellekt asosidagi registratsiya yordamida:

- implant joylashuvi optimal aniqlanadi
- jarrohlik xavfi kamayadi
- davolash natijalari yaxshilanadi

Bundan tashqari, bu texnologiya ortodontiya va ortopedik stomatologiyada ham keng qo'llanishi mumkin.

Adabiyotlarda ham sun'iy intellekt asosidagi registratsiya usullarining ustunligi qayd etilgan. Ko'plab tadqiqotlar AR usullarining tezligi va aniqligi yuqori ekanligini tasdiqlaydi. Ushbu tadqiqot natijalari ham shu tendensiyaning qo'llab-quvvatlaydi.

Ayrim tadqiqotlarda SR usuli yaxshi natijalar ko'rsatgan bo'lsa-da, u to'liq avtomatlashtirilmaganligi sababli AR darajasiga yetmaydi. MR usuli esa zamonaviy klinik talablar nuqtai nazaridan eskirgan deb hisoblanadi.

Tadqiqotda ayrim cheklovlar mavjud:

- namunalar soni nisbatan kam (23 bemor)
- faqat yuqori sifatli tasvirlar tahlil qilindi
- turli skanerlar o'rtasidagi farqlar hisobga olinmadi

Kelajakdagi tadqiqotlarda katta hajmdagi ma'lumotlar va turli klinik holatlar o'rganilishi maqsadga muvofiq.

Sun'iy intellekt texnologiyalarining rivojlanishi stomatologiyada yangi imkoniyatlar yaratmoqda. Kelajakda:

- to'liq avtomatlashtirilgan diagnostika tizimlari
- real vaqt rejimida registratsiya
- individual davolash algoritmlari

ishlab chiqilishi kutilmoqda.

Xulosa

Ushbu tadqiqot natijalari stomatologiyada raqamli texnologiyalar, xususan sun'iy intellekt asosidagi multimodal registratsiya tizimlarining yuqori samaradorligini ilmiy asosda tasdiqladi. Konus-nurli kompyuter tomografiyasi (CBCT) va intraoral skan (IOS) ma'lumotlarini integratsiya qilish implantologik rejalashtirishda muhim bosqich hisoblanadi va uning aniqligi bevosita davolash natijalariga ta'sir ko'rsatadi. Tadqiqot davomida uch xil registratsiya usuli — qo'lda (MR), yarim avtomatik (SR) va sun'iy intellekt asosidagi avtomatik (AR) usullar o'zaro solishtirildi. Olingan natijalar shuni ko'rsatdiki, AR usuli barcha asosiy ko'rsatkichlar bo'yicha ustunlikka ega. Xususan, registratsiya vaqti keskin qisqarganligi (o'rtacha 51 soniya), shuningdek, aniqlik ko'rsatkichlarining yuqori darajada ekanligi ($MSD \approx 0,04$ mm) ushbu usulning klinik amaliyot uchun yuqori samaradorligini tasdiqlaydi. Bundan tashqari, sun'iy intellekt asosidagi yondashuv natijalarning takrorlanuvchanligini oshirib, inson omiliga bog'liq xatoliklarni sezilarli darajada kamaytiradi. Bu esa diagnostika va davolash rejalashtirish jarayonlarini yanada ishonchli va barqaror qiladi. Yarim avtomatik registratsiya usuli o'rta darajadagi natijalarni ko'rsatgan bo'lsa-da, u hali ham operator aralashuviga muhtoj. Qo'lda registratsiya esa vaqt talabchanligi va subyektivligi sababli zamonaviy klinik talablar nuqtai nazaridan samarasiz hisoblanadi. Umuman olganda, ushbu tadqiqot sun'iy intellekt asosidagi registratsiya tizimlari stomatologiyada yangi texnologik bosqichni boshlab berayotganini ko'rsatadi. Ushbu texnologiyani klinik amaliyotga joriy etish diagnostika aniqligini

oshirish, davolash xavfsizligini ta'minlash va umumiy klinik samaradorlikni yaxshilashga xizmat qiladi.

REFERENCES| ЧОҚКИ | IQTIBOSLAR:

1. Akhmadov, I. N., & Sanakulov, J. O. (2024). Nedostatki i preimushchestva razlichnykh tekhnik polucheniya slepkov zubov. Central Asian Journal of Education and Innovation, 3(1 Part 3), 41–46. (in Russ).
2. Akhmadov, I. N., Sadriev, N. N., & Sanakulov, J. O. (2023). Digital dental impressions. Central Asian Journal of Education and Innovation, 2(12 Part 2), 166–171.
3. Akhmadov, I. N., & Sanakulov, J. O. (2024). Raqamli tish qoliplari. Central Asian Journal of Education and Innovation, 3(1 Part 3), 47–51. (in Uzbek).
4. Sanakulov, J. O. (2024). Marker osteoporoza pri planirovanii ortopedicheskogo lecheniya. Luchshie intellektualnye issledovaniya, 19(1), 214–221. (in Russ).
5. Sadriev N. N. Optimization of orthopedic treatment of dentition defects in patients with chronic diseases of the gastrointestinal tract // Science and Education. – 2022. – T. 3. – № 10. – C. 63–67. (in Russ).
6. Sadriev N. N. Prevalence of physiological bite forms in people with different face types // Web of Scientist: International Scientific Research Journal. – 2022. – T. 3. – № 11. – C. 451–454.
7. Sanakulov J., Sadriev N., Akhmadov I. Complex orthopedic-surgical treatment of dentoalveolar anomalies using laser technologies // Central Asian Journal of Education and Innovation. – 2023. – T. 2. – № 9 Part 2. – C. 27–31. (in Russ).
8. Sadriev N. N., Akhmadov I. N., Sanakulov J. Analysis of profile teleradiogram and planning orthodontic treatment using automated systems // Eurasian Journal of Technology and Innovation. – 2023. – T. 1. – № 9. – C. 69–71.
9. Sadriev N. N. Dental implantology in diabetic patients // Bulletin of Students of New Uzbekistan. – 2023. – T. 1. – № 10. – C. 44–48.
10. Sadriev N. N. Prevention of prosthetic dentistry // Bulletin of Pedagogues of New Uzbekistan. – 2023. – T. 1. – № 10. – C. 54–57.
11. Sadriev N. N., Akhmadov I. N. Differentiated approach to treatment of periodontal diseases in chronic viral hepatitis patients // Modern education and development. – 2024. – T. 12. – № 3. – C. 241–249.
12. Musaeva G. A., Akhmadov I. N., Sadriev N. N. Periodontitis and its treatment affecting quality of life of patients // Modern education and development. – 2024. – T. 12. – № 3. – C. 260–273.
13. Sadriev N. N., Sanakulov J. Orthopedic treatment optimization in patients with gastrointestinal diseases // Eurasian Research Bulletin. – 2023. – T. 17. – C. 157–159.
14. Sadriev N. N., Akhmadov I. N., Sanakulov J. Periodontitis and general diseases: mutual influence, diagnosis and treatment // Central Asian Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies. – 2025. – T. 2. – C. 1–8.
15. Obloberdiyevich S. J. BOPT technique in prosthetic dentistry // Modern education and development. – 2024. – T. 12. – № 3. – C. 250–259.
16. Sadriev N. N. Optimization of prosthetic dentistry prevention // Bulletin of Students of New Uzbekistan. – 2023. – T. 1. – № 10. – C. 54–57.
17. J. A. Rizaev ., A. A. Shodmonov . EditorJournals and Conferences . (2022, October 2). DENTAL IMPLANTATION USING COMPUTER SOFTWARE FOR ACCURATE PLACEMENT AND LONG-TERM PROSTHETIC RESULTS. <https://doi.org/10.17605/OSF.IO/DKC6W> 19 .
18. J. A. Rizaev , & A. A. Shodmonov . (2022). OPTIMIZATION OF THE SURGICAL STAGE OF DENTAL IMPLANTATION BASED ON COMPUTER MODELING. World Bulletin of Public Health, 15, 11-13

19. Rizaev JA, Shodmonov AA Optimizing the Surgical Phase of Dental Implants Optimization of the Surgical Phase of Dental Implantation Based on Computer Modeling //Eurasian Medical Research Periodical. – 2022. – T. 12. – S. 84-87.
20. Gulmukhamedov , P. B., Rizaev , Zh. A., Khabilov , N. L., & KT, B. (2023, November). POLYMORPHISM OF THE MTHFR GENE (A1298C) AND CONGENITAL DEFECTS OF THE MAXILLOFACIAL AREA. In Conferences (pp . 62-63).
21. Rizaev J., Bekmuratov L. SOCKET SHIELD TECHNIQUE FOR PRESERVING ALVEOLAR SOFT TISSUES DURING IMMEDIATE IMPLANT PLACEMENT //Medical science of Uzbekistan. – 2023. – No. 4. – S. 15-20.
22. Polatova Djamila , Madaminov Ahmad, Raximov Nodir . Significance of expression PD-L1 and p53 proteins in human papillomavirus-associated oropharyngeal squamous cell carcinoma// Journal of Biomedicine and Practice. 2022, vol . 7, issue 4, pp . 144-151
23. Abdurakhmonov F. R., Rakhimov N. M., Abdurakhmonova F. F. Special choices for the treatment of complications of the soft tissue injuries of the facial region //The American Journal of Medical Sciences and Pharmaceutical Research. – 2023. – T. 5. – №. 10. – C. 24-26.

БИОМЕДИЦИНА ВА АМАЛИЁТ ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ БИОМЕДИЦИНЫ И ПРАКТИКИ

JOURNAL OF BIOMEDICINE AND PRACTICE

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; E-mail: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; E-mail: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000